“Ijro.gov.uz” tizimida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta’minlashda Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasida ijro intizomi holati to‘g‘risida ma’lumot

“Ijro.gov.uz” tizimida Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasiga kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari bo‘yicha 2026-yilning yanvar-oktabr oylarida **1872 ta** topshiriq ijrosini ta’minlash belgilangan .

Joriy yilning 27-oktabr holatiga ko‘ra, mazkur topshiriqlardan **1861 tasi** *(yoki **99,4 foizi**)*ning ijrosi ta’minlandi, **11 ta** topshiriq ijrosi bo‘yicha ishlar davom ettirilmoqda.

Qolgan topshiriqlarning barchasi **belgilangan tartibda nazoratdan yechilgan**.

Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta’minlashda ijro intizomini buzgan tarkibiy bo‘linmalar va tizim tashkilotlarining mas’ul rahbar va xodimlariga nisbatan **intizomiy chora tadbirlari** ko‘rib borilmoqda.
Ijro intizomi talablarini buzgan xodimlarga nisbatan intizomiy choralarning boshqa shakllari bilan bir qatorda **ularning ustama ish haqlariga nisbatan pasaytirilgan koeffitsientlar** muntazam qo‘llanilib kelinmoqda.

Ijro intizomini mustahkamlash masalalari qo‘mita rahbariyati ishtirokida **haftada 2 marta** *(dushanba, juma kunlari)* o‘tkaziladigan yig‘ilishlarda muhokama qilib borilmoqda.

Bugungi kunda “Ijro.gov.uz” tizimida qo‘mita tomonidan **sentabr oyi yakunigacha** bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar ijrosining borishi qo‘mita markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari boshliqlari va tizim tashkilotlari rahbarlari hisobotlarining muhokamalari natijalari bo‘yicha belgilab olinadigan va topshiriqlar ijrosini jadallashtirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar asosida **kundalik nazorat rejimida** davom ettirilmoqda.